

**Oblayorova Shahodatxon Sodiqjon qizi**

*Marg'ilon shahar 30-DMTT tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** Maqolada mental arifmetika xususiyatlari, tarixi va uning maktabgacha yoshdagi bolalarni ruhiy, jismoniy, aqliy rivojlantirishdagi ahamiyati vazifasi haqida ma'lumot

**Kalit so'zlar:** Mental arifmetika, ijodiy fikrlash, diqqat, sensomatorika, mayda matorika, "katta do'st", "kichik do'st"

Mental arifmetika tarixi miloddan avvalgi 3000 yilda qadimgi Yunonistonda boshlangan. Mazkur soha miyaning ikkala yarimsharini ha to'g'ri ishlashga yordam beradi; xotira diqqatni rivojlantiradi. Xattoki rivojlangan mamlakatlarda majburiy fan sifatida o'qitiladi.

Mental arifmetikasi –bu samarali ishonchli dastur bo'lib matematik amalni miyada xattoki kalkulyatordan ham tezroq hisoblashni o'rgatadi. Mental arifmetikani o'rganish orqali bolada

Mantiqiy fikrlash

E'tiborini, diqqatini jamlash

Analitik fikrlashi

Ijodiy fikrlash qobiliyati

Tasavvur qilish qobiliyati yanada yuqori tezlikda rivojlanadi

Mental arifmetikadan ta'lim olayotgan bolalar faqat matematikadan emas balki boshqa fan sohalaridam ham muvaffaqiyatga erisha oladilar. Bolalarni hozirgi kunda chalg'ituvchi omillar ko'p bo'lganligi sababli, o'qishga qiziqishi qiyin bo'lganda, aynan shu muammoda mental arifmetika ota-onaga yordam beradi. Misollar turli xildagi chizgilar suratlar orqali berilganligi sababidab bola matematikani o'rganishga qiziqishi ortadi. Bu esa aqliy jihatdan rivojlanishni, ruhiy jihatdan sokinlikni, jismoniy jihatdan motorikalarni rivojlanishida yordam beradi.

Mental arifmetikani o'rganish uchun raqamlarni tanishi yoza olishi talab qilinadi. Bu degani raqamni tanib uni yoza oladigan insonlarning barchasi mental arifmetikani o'rgana oladi.

Mental arifmetika bolalarimizning tez hisoblay olishlari, mantiqni tez o'rganishlari, rahbarlik hislatlarini rivojlanishiga katta yordam beradi.

Mental arifmetikada "katta do'st" "kichik do'st" formulalari bo'lib ustundagi toshlarni olishda yordam beradi. Katta, kichik deyilshiga esa ularni 10 liklariga qaraladi.

Demak xulosa qiladigan bo'lsak bir vaqtning o'zida tahliliy ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Yangi bilim va qolaversa chet tillarini osonlik bn organish imkonini beradi



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Masaru Ibuka  
"Uchgacha ayni vaqti" Toshkent "Akademnashr" 2021
2. Ashirov O'g'iloy, Mavlonova Sitorabonu "Bolalarni aqliy faoliyatlarini yuksaltirish va ularning mustaqilligini rivojlantirishda erta ta'lim, ayda matorika hamda mental arifmetikaning o'rni" "Образование и наука в XXI веке" 2022
3. "Mental arifmetika" Ulug'bek Normurodov 2020
4. WWW. Global.edu.uz
5. Olcha.uz

